

“JAMIYATDA TUZILAYOTGAN SHARTNOMALARNI KELISHISH, IMZOLASH VA IJRO ETISH SIYOSATI” BO`YICHA SEMINAR O`TKAZILDI

// 24.02.2022

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/contract-rules>



Joriy yilning 23-fevral kuni “O`zkiyosanoat” Ajda “Jamiyatda tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati” mavzusida seminar bo`lib o`tdi. Kompleans nazorat xizmati tomonidan tashkillashtirilgan tadbirda “O`zkiyosanoat” AJ boshqarma va bo`limlarining rahbar va xodimlari ishtirok etishdi. Unda “Jamiyatda tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati”ning mazmun-mohiyati, O`zbekiston Respublikasida xaridlar, shartnomalar va bitimlarni kelishish, imzolash va ijro etish qanday me`yoriy huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi bo`yicha aniq ma`lumotlar berildi.

Seminardan ko`zlangan maqsad, jamiyatda faoliyat olib borayotgan xodimlarni qonunchilikdagi mavzuga oid me`yoriy huquqiy hujjatlar, yangiliklar va e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan eng muhim jihatlar bilan yaqindan tanishtirish bo`lib, tadbir davomida ular:

- O`zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to`g`risida”gi 684-

sonli qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3953-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi "Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 37-sonli qarori va boshqa muhim manbalarni o'rganish imkoniyatiga etga bo'lishdi.



Qolaversa, shartnomaning majburiy shartlari qilib muqaddima, shartnomaning nomi, shartnoma imzolangan sana, shartnomani imzolash joyi, kontragentning yuridik shaxslarning yagona davlat reestrda ro'yxatdan o'tgan firmasining to'liq nomi, shartnomani imzolagan shaxslarning lavozimi, F.I.Sh., shartnomani imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar e'tirof etilganligi hamda shartnomada jamiyat va kontragentlar o'rtasida o'rnatilgan huquqiy munosabatlarning mohiyatini aks ettiruvchi mavzu, xarid qilinadigan tovarlar yoki xizmatlar, ishlar smetasining spetsifikatsiyasi, shartnoma narxi, tomonlarning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish muddatlari, hisob-kitob qilish tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik, nizolarni hal qilish tartibi, yuridik manzillar bank hisoblari haqidagi ma'lumotlar, faks va aloqa telefon raqamlari, elektron pochta manzili va shartnoma muddati ko'rsatib o'tilgan bo'lishi shart ekanligi ishtirokchilarga tushuntirib o'tildi.

Seminar so'ngida ishtirokchilar mavzuga doir qator savollarga batafsil javoblar olishdi va eng muhimi ish

faoliyati davomida asqotadigan zarur bilimlarni o`zlashtirishdi.

"O`zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati